
“QUVNOQ STARTLAR”: TOSHLOQ TUMANI JAMOASI 1-O’RINNI EGALLADI

Bugun Toshloq tumanida umumta’lim maktabi o’quvchilari o’rtasida an’anaviy “Quvnoq startlar” sport musobaqasining viloyat bosqichi bo’lib o’tdi.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ayniqsa o’quvchi-yoshlarni sportga keng jalb etish, yozgi dam olish kunlaridagi bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullantirish samaradorligini yanada oshirish maqsadida o’tkazilayotgan “Quvnoq startlar” sport musobaqasining viloyat bosqichi tumandagi 9-umumiy o’rta ta’limi maktabida o’tkazildi.

Musobaqada Farg’ona shahar, O’zbekiston, So’x va Toshloq tumanlari jamoalari qatnashdilar.

Ushbu qiziqarli va murosasiz kechgan bahsda jamoalar quyidagi o’rinlarni egalladi:

1-o’rinni Toshloq tumani jamoasi,2-o’rinni O’zbekiston tumani jamoasi,3-o’rinni So’x tumani jamoasi va 4-o’rinni Farg’ona shahar jamoalari egalladilar.

Birinchi o’rinni olgan Toshloq jamoasi Respublika bosqichiga yo’llanmani qo’lga kiritdi.

2023-06-14 18:20:53